

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Yuldasheva Umida

TDIU, "Xalqaro moliya"

kafedrası DSc., professor

umida_yu@mail.ru

Negmurodova Mulkiya

TDIU, Moliya Fakulteti talabasi

mulkiyanr@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada bank kredit portfeli holati, foiz stavkalari dinamikasi va kreditlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha yillik foiz stavkalari, jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilayotgan kreditlarning tarkibi hamda muddati bo'yicha farqlari ko'rib chiqiladi. Qolaversa, Markaziy bankning pul-kredit siyosati va tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimining takomillashuvi bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'rganiladi. Bundan tashqari, kredit portfeli sifatini oshirish, uning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sish uchun samarali moliyaviy muhit yaratish ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit portfeli, aktivlar, risk, diversifikatsiya, yuridik va jismoniy shaxslar, bozor.

Kirish

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, daromadliligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri - bu kredit portfelining to'g'ri shakllantirilishi va samarali boshqarilishidir. Kreditlar bank aktivlarining eng katta qismini tashkil etadi, shuning uchun portfelning sifati bankning risk darajasiga, to'lovga qobiliyatiga va bozor sharoitidagi mustahkamligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kredit portfelini shakllantirish jarayonida kredit siyosati, kreditlash standartlari, mijozlarning moliyaviy holatini baholash mezonlari va risklarni diversifikatsiya qilish tamoyillari asosiy o'rin tutadi. Bunday jarayonlarning har biri bankning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga muvofiq amalga oshirilishi talab etiladi.

Kredit ko'magisiz mamlakat ichida va tashqarisida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samarali, tez va sivilizatsiyalashgan darajada tashkil etib bo'lmaydi. So'nggi vaqtlarda "tijorat banklari kredit portfeli" tushunchasi ko'pchilik uchun bank tizimi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni anglatadigan asosiy tushunchalardan biriga aylanib qoldi. Uning tez orada ommalashib ketishiga sabab shundaki, "kredit portfeli" tijorat banklarining kredit bilan bog'liq butun faoliyatida

hal qiluvchi o'rin tutadi. "Kredit portfeli" tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko'rsatadigan omillardandir. Kredit portfelining to'g'ri tashkil etilishi tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun asos hisoblanadi. Xususan, kredit berish va uni belgilangan muddatda qaytarib olish, u bilan bog'liq xatarlar, ssudalar, muddati o'tgan yoki uzaytirilgan kreditlar bo'yicha hisob-kitob operatsiyalari, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, zaxira miqdori, banklararo kredit va markazlashtirilgan kreditlar buyicha operatsiyalar shular sirasiga kiradi. Demak, kredit portfeli - bu turli xil risklarga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisidir. Bugungi kunda bank sektorida raqamlashtirish jarayonlari kredit portfelini boshqarishning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Avtomatlashtirilgan kredit tahlili, elektron monitoring, real vaqt rejimidagi risk baholash tizimlari va kredit tarixini integratsiyalash jarayonning samaradorligini oshirayotgan eng muhim omillar sirasiga kiradi.

Tijorat banklari kredit portfelini samarali boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi, bank faoliyatida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bular:

- kredit xatari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
 - ssudalarni xatar guruhlari bo'yicha tasniflash;
 - kredit portfelini kredit xatari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha ma'qullashtirish;
 - kredit xatarini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
 - muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
 - yaratilayotgan zahiralarining yetarliligini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;
 - kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligini va daromadligini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida ham kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ta'kidlab o'tilgan [1].

Umuman olganda, tijorat banklarida kredit portfelini shakllantirish va boshqarish

mexanizmlarini chuqur o'rganish bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kredit risklarini kamaytirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan strategik yo'nalishdir. Bozor sharoitida kredit portfeli sifatining yomonlashuvi bank faoliyatiga bevosita tahdid solishi sababli kreditlash siyosatini takomillashtirish, risklarni diversifikatsiya qilish, monitoring tizimlarini kuchaytirish hamda xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga hissa qo'shishda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklarining kredit siyosatiga, ularning kredit portfeli va uning sifatiga, undan foydalanish darajasiga katta e'tibor beriladi. Chunki, kredit portfelining to'g'ri tashkil qilinishi banklarning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi.

Zamonaviy kredit risklarini modellashtirish nazariyasining asoschilaridan biri Oldrich Vasicek bank tizimida kredit portfelining yo'qotish ehtimolini baholashda keng qo'llaniladigan Vasicek modeli muallifidir. Uning ilmiy ishlari kreditlar bo'yicha defolt ehtimollari, korporativ obligatsiyalar risklari, portfel diversifikatsiyasi va sistematik riskning ta'sirini hisoblash metodlarini chuqur tahlil qiladi [2]. Vasicek yaratgan model Basel II va Basel III xalqaro prudensial standartlarining asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. U moliyaviy risklarni analitik yondashuv asosida hisoblash bo'yicha innovatsion g'oyalarni ilgari surgan bo'lib, uning ishlari bugungi kunda kredit portfeli boshqaruvi, kapital yetarliligini hisoblash, va bank risklarini boshqarish sohalarida keng qo'llaniladi.

Shuningdek, zamonaviy moliyaviy iqtisodiyotning eng nufuzli olimlaridan biri Darrell Duffie tomonidan ishlab chiqilgan modellarning aksariyati banklarning kredit portfellaridagi yo'qotishlarni baholashda, kapital yetarliligi talablarini hisoblashda hamda moliya bozorlaridagi shoklarni prognoz qilishda keng qo'llaniladi. Olimning "Credit Risk: Pricing, Measurement, and Management" nomli asarida ham kredit bozorlarining nazariy asoslarini, defolt ehtimolini modellashtirish, kredit derivativlari narxlash modeli, kredit portfeli risklarini baholash va yo'qotish taqsimotlarini hisoblash kabi murakkab jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilinadi [3]. Ushbu kitob banklar, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlari kredit portfelini boshqarishda qo'llaydigan metodologiyalarning ilmiy poydevorini yaratgan asarlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi dotsenti va PhD Ma'rifat Ibodullaeva o'z ilmiy ishida O'zbekiston tijorat banklari kredit portfellarining hozirgi holatini chuqur tahlil qilib, ularni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslab beradi [4]. Shuningdek, Ibodullaeva kredit portfeli

barqarorligini ta'minlash uchun risklarni boshqarishning xalqaro yondashuvlarini-Basel standartlari, portfel diversifikatsiyasi tamoyillari hamda kredit monitoringi usullarini milliy bank tizimida joriy etish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit portfelini shakllantirish va boshqarish masalasi zamonaviy bank tizimining eng muhim strategik vazifalaridan biridir. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar kredit portfeli barqarorligini ta'minlashda risklarni aniqlash, baholash va diversifikatsiya qilish tamoyillari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydilar. Umuman olganda, barcha tadqiqotlar kredit portfeli boshqaruvi iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada tijorat banklarining kredit portfelini shakllantirish va boshqarish jarayonlarini baholashda tizimli yondashuv qo'llaniladi. Ma'lumotlar tahlili statistik usullar, taqqoslama tahlil, dinamik qatorlar va tuzilmaviy tahlil metodlari asosida amalga oshiriladi. Mahalliy banklar faoliyatiga oid ochiq ma'lumotlar asosida kredit portfelining tarkibi, risk darajasi va o'sish tendensiyalari empirik tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar

Banklarning kredit portfelini baholash va tahlil qilish bank menenjerlariga ssuda operatsiyalarini samarali boshqarishga imkon beradi. Banklarning kredit portfelini tashkil qilishning asosiy maqsadi bankning kredit siyosati sohasidagi strategiyasini ishlab chiqish, kreditlarning sifatini tahlil qilish va uni yaxshilash sohasida choralar ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun bank berilgan kreditlarning belgilangan limitlarga mos kelishi, kredit resurslardan foydalanish samaradorligi, kredit risklarni kamaytirish va kreditlarning sifatini yaxshilash kabi ko'rsatkichlarning haqiqiy holatini tekshirib borishi zarur.

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan		mrd. so'm
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar	
	Jami	533,121	177,532	355,589	308,692	122,421	186,272	
	Davlat ulushi mavjud banklar	366,731	92,698	274,033	154,511	53,290	101,221	
1	O'zmilliybank	108,014	17,978	90,036	36,839	12,650	24,190	
2	O'zsanoatqurilishbank	65,498	9,864	55,635	20,745	7,093	13,652	
3	Agrobank	59,436	9,228	50,208	19,469	9,393	10,075	
4	Asaka bank	38,717	9,307	29,410	15,852	7,100	8,751	
5	Xalq banki	29,620	21,356	8,264	23,709	4,995	18,714	
6	Biznesni rivojlantirish banki	22,527	11,647	10,879	10,765	2,225	8,540	
7	Mikrokreditbank	17,416	6,953	10,463	7,832	2,565	5,267	
8	Aloqa bank	12,944	4,168	8,776	13,815	5,229	8,585	
9	Turon bank	12,558	2,195	10,362	5,486	2,040	3,447	

1-rasm. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarining kredit va depozitlari

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklari kredit portfelining jami hajmi 533,121 trln so'mga yetgan. Davlat banklarining jami kredit portfeli **366,7 trln so'mni** tashkil etib, bu umumiy kreditlash hajmining sezilarli qismini qamrab oladi. Mazkur kreditlarning 92,7 trln so'mi jismoniy shaxslarga, 274,0 trln so'mi esa yuridik shaxslarga to'g'ri kelishi iqtisodiyotning real sektori, korxonalar va ishlab chiqarish subyektlarini moliyalashtirish ustuvor yo'nalish bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Davlat ulushi mavjud banklarning jami depozitlari 154,5 trln so'mga yetgan bo'lib, ulardan 122,4 trln so'mi jismoniy shaxslarning jamg'armalari, 101,2 trln so'mi esa yuridik shaxslar depozitlarini tashkil etadi. Banklar kesimida O'zmilliybank, O'zsanoatqurilishbank, Agrobank va Asaka banki kreditlash bo'yicha eng yirik portfellarga ega bo'lib, ular birgalikda iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan resurslarning katta qismini ta'minlamoqda. Depozitlar kesimida ham ushbu banklar ustunlik qiladi, ayniqsa, jismoniy shaxslar jamg'armalari ulushi yuqori ekani aholining davlat banklariga nisbatan ishonchi mustahkamligini ko'rsatadi.

	Boshqa banklar	166,391	84,835	81,556	154,181	69,130	85,051
10	Ipoteka-bank	35,094	23,758	11,336	25,692	5,930	19,761
11	Kapital bank	31,584	18,021	13,563	36,664	22,094	14,570
12	Hamkorbank	19,178	7,550	11,628	11,634	6,521	5,112
13	Ipak yo'li bank	14,228	4,203	10,025	11,810	4,448	7,362

2-rasm. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra davlat ulushi mavjud bo'lmagan eng yirik tijorat banklarining kredit va depozitlari.

Davlat ulushi mavjud bo'lmagan 26 ta bank ichidan eng ko'p kredit va depozit hajmiga ega bo'lgan banklar sifatida jadvalda 4 tasi ko'rsatilmoqda. Bunda jami nodavlat banklarning kreditlari 166,391 trln so'm tashkil qilsa, shundan 154,181 trln so'mni depozitlari tashkil qiladi. Shuningdek, Ipoteka-bankining jami kreditlari 35,094 trln so'mni tashkil qiladi, bundan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 23,758 trln so'mni va yuridik shaxslar uchun 11,336 trln so'mni tashkil qiladi. Depozitlar bo'yicha jami 25,692 trln so'mni tashkil qilib, eng ko'p ulush yuridik shaxslardan kelgan. Bundan keyingi o'rinda kreditlari va depozitlar ulushi bo'yicha Kapital bank, Hamkorbank hamda Ipak Yo'li bank turadi.

Kredit ma'lumotlari	2024-yil												2025-yil							
	Yanvar	Februl	Mart	Aprel	May	Yun	Yul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Nowabr	Dekabr	Yanvar	Februl	Mart	Aprel	May	Yun	Yul	Avqust
Aholi kreditlari	24.1	23.7	23.6	23.6	23.5	23.6	23.5	23.5	23.2	23.3	23.5	23.4	23.3	23.2	23.1	23.8	23.8	23.2	23.2	23.6
- 1 yilgacha bo'lgan kreditlar	22.8	22.5	23.2	23.5	23.7	23.5	23.2	24.1	23.3	23.2	23.4	23.7	22.5	22.1	23.4	23.1	22.9	22.1	22.9	22.8
- 1 yildan yuqori bo'lgan kreditlar	24.5	24.1	23.7	23.6	23.4	23.6	23.6	23.4	23.2	23.3	23.5	23.4	23.6	23.2	23.0	22.7	23.1	23.1	23.1	23.8
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	23.1	24.4	24.7	24.6	24.5	24.6	24.2	24.5	23.8	23.9	24.3	24.9	24.4	24.1	23.6	22.6	23.1	23.7	23.8	24.1
- 1 yilgacha bo'lgan kreditlar	22.9	24.3	23.3	23.3	23.5	24.8	23.1	23.3	22.4	22.5	23.6	23.9	23.5	23.1	23.0	22.8	23.3	23.1	23.6	23.6
- 1 yildan yuqori bo'lgan kreditlar	23.1	24.4	24.7	24.6	24.5	24.6	24.2	24.4	23.8	23.9	24.2	24.9	24.3	24.0	23.3	22.6	23.0	23.6	23.7	24.0
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	22.9	22.9	22.7	22.8	22.4	22.7	22.8	22.7	22.7	22.7	22.7	22.8	22.4	22.8	22.7	22.9	22.6	22.8	22.7	23.2
- 1 yilgacha bo'lgan kreditlar	22.8	22.3	22.8	23.3	23.5	23.4	22.9	24.3	22.1	22.1	22.2	22.1	22.3	22.0	22.1	22.9	22.8	22.1	22.7	22.6
- 1 yildan yuqori bo'lgan kreditlar	23.2	23.4	22.5	22.8	22.8	22.2	22.9	22.4	22.8	22.5	22.4	22.8	22.5	22.1	22.4	22.9	23.3	23.2	22.8	23.6

3-rasm. 2024-2025-yillarda Milliy valyutadagi bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalari (o'rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda).

Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil davomida kreditlar o'rtacha 24-25% atrofida bo'lib, yil davomida katta tebranishlar kuzatilmagan. 2025-yil boshiga kelib esa foiz stavkalarida asta-sekin pasayish tendensiyasi paydo bo'lgan bo'lib, yanvar-avgust oylarida ko'rsatkichlar 23-24% diapazonida shakllangan. Qisqa muddatli, ya'ni 1 yilgacha bo'lgan kreditlar bo'yicha stavkalar doimiy ravishda pastroq ya'ni 21-22% atrofida bo'lgan, uzoq muddatli kreditlarda esa foizlar 23-24% darajasida saqlangan. Aholi iste'mol kreditlari eng yuqori stavkalarda davom etgan bo'lsa, yuridik shaxslarga ajratiladigan kreditlar nisbatan past %da, ya'ni taxminan 21,5-22,5% oralig'ida shakllangan. Umuman olganda, mazkur davrda kredit bozorida %lar yuqori bo'lishiga qaramay, 2025-yilda ularning asta-sekin pasayishi kuzatilgan va bu kredit siyosatining yumshab borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda bank kredit portfeli izchil kengayib borayotgani kuzatiladi. Foiz stavkalari bo'yicha statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kreditlar tarkibida jismoniy shaxslar ulushi oshib borayotgan bo'lsa-da, yuridik shaxslarga yo'naltirilgan kreditlar iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda asosiy o'rinni egallab turibdi. So'nggi islohotlar kreditlash jarayonida bozor tamoyillarini kuchaytirish, foiz stavkalarini bosqichma-bosqich liberallashtirish va kreditlarni qaytarish intizomini mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, Markaziy bankning pul-kredit siyosati doirasida inflyasion targetlash rejimining joriy etilishi foiz stavkalari barqarorligini ta'minlashga xizmat qilyapti.

Xulosa

Tijorat banklarida kredit portfelini shakllantirish va boshqarish mexanizmlari bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'nggi yillarda olib borilayotgan moliya islohotlari, kreditlashning raqamli transformatsiyasi, risklarni baholash tizimining takomillashuvi va kreditlar monitoringining kuchaytirilishi kredit portfelining sifatini oshirmoqda. Kredit portfelining diversifikatsiya qilinishi va risklarning kamaytirilishi banklarning daromadliligi hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Shuning uchun kredit portfelini

shakllantirishda strategik yondashuv, ehtiyotkor risk boshqaruvi va yangi texnologiyalarni qo'llash tijorat banklari uchun eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020 yildagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. Credit Risk: Pricing, Measurement, and Management (<https://mitpressbookstore.mit.edu>)
4. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
5. Pul va banklar: O'quv qo'llanma / Sh.Z.Abdullayeva; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. 756b.
6. <https://cbu.uz/uz/statistics>
7. <https://lex.uz>
8. <https://uza.uz>
9. <https://uz.wikipedia.org>